

HAFSNING OSIMDAN QILGAN RIVOYATINING KENG TARQALISH OMILLARI

Umarova Nilufar Ulug'bek qizi

O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi

24.00.02. Qur'onshunoslik. Hadisshunoslik mutaxassisligi stajyor-tadqiqotchisi

tel: 88 008 85 68

e-mail: umarov.s.f@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14498731>

Ma'lumki, mutavotir qiroatlar 10 ta bo'lishiga qaramay, ularning ichida Hafsning Osimdan qilgan rivoyati islom olamining aksariyat qismida keng tarqalgan. Buning bir qancha sabablari bo'lib, ulardan eng asosiysi, undagi tajvid qoidalarining murakkab emasligi hamda qiroatning oson o'zlashtirilishidir.

Hafsning ustozlari bo'lmish Imom Osim Muoviya xalifaligi davrida tavallud topgan. Bu davr 41-60-hijriy yillar oraliqiga to'g'ri keladi. Asl ismi – Abu Bakr Osim ibn Abu Najud ibn Bahdala. Ibn Jazariy uni tobeinlardan bo'lgan, deydi. Abu Rimsadan rivoyat qilinishicha, u Nabiy (s.a.v.)ning sahobalaridan 14 tasini ko'rgan. Imom Osim qori va muhaddis bo'lib, uning ustozlari ham qori va muhaddislardir.

Osim Abu Abdurahmon Abdulloh ibn Habib ibn Rabi'a Sulamiy, Abu Maryam Zirr ibn Hubaysh Asadiy va Abu Amr Sa'd ibn Ilyos Shayboniylarning barchasidan ta'lim olgan. Yuqoridagi ustozlarining barchasi Abdulloh ibn Mas'udda o'qiganlar. Abu Abdurahmon Sulamiy va Zirr ibn Hubayshlar Usmon ibn Affon va Ali ibn Abu Tolibda o'qiganlar. Abu Abdurahmon Sulamiy, shuningdek, Ubay ibn Ka'b va Zayd ibn Sobitda o'qigan.

Abdulloh ibn Mas'ud, Usmon ibn Affon, Ali ibn Abu Tolib, Ubay ibn Ka'b va Zayd ibn Sobitlarning barchalari Nabiy (s.a.v.)da ta'lim olganlar. Bu esa Osim qiroatining sanadi Payg'ambar (s.a.v.)ga yetib borishiga dalolat qiladi.

Imom Osimdan ko'p sonli qorilar qiroatlarni qabul qilib olganlar. Sho'ba (Abu Bakr ibn Ayosh), Hafs ibn Sulaymon, ibn Mug'iyra, Affon ibn Tag'lub, Horub ibn Muso, Sulaymon ibn Mihron A'mash, Hammud ibn Zayd, Abu Amr ibn A'lo, Hamza ibn Habib Zayyotlar shular jumlasidandir.

Uning 2 mashhur roviysi: Abu Bakr ibn Ayosh (Sho'ba) va Hafs ibn Sulaymondur. Abu Bakr ibn Ayosh (Sho'ba)ga Zirr ibn Hubayshning Abdulloh ibn Mas'uddan, u esa Nabiy (s.a.v.)dan o'rgangan qiroatini o'rgatgan. Hafs ibn Sulaymonga esa Abu Abdurahmon Sulamiyning Ali ibn Abu Tolibdan, u esa Nabiy (s.a.v.)dan o'rgangan qiroatini o'rgatgan¹.

Ibn Mujohidning aytishicha, Sho'ba bilan Hafsning rivoyalari o'rtasida 520 o'rinda (harfda) asosiy farqlar bor.

Osim Kufada Abu Abdurahmon Sulamiydan so'ng qiroat ustozligini qo'liga olgan bo'lib, uning oldiga odamlar dunyoning turli tomonlaridan qiroatni o'rganish uchun kelishar edi. Unda fasohat, tajvid va mohirlik jamlangan bo'lib, odamlarning Qur'onni go'zal ovozda o'qiydigani, fasohatli gapiradigani va mohirligi bilan tanilgani edi.

Abdulloh ibn Ahmad ibn Hanbal aytadi: "Otamdan: sizga qaysi qiroat sevimli, deb so'radim." U: "Madina ahli qiroati. Agar u bo'lmasa, Osim qiroati" dedi.

Abu Bakr ibn Ayosh yana aytadi: "O'limi yaqinlashganda uning oldiga kirdim va ushbu oyatni o'qiyotganini eshitdim: *"So'ngra haqiqiy Xojalari – Allohga qaytarilurlar"* ² (An'om

¹ Qarang: Halima Sol. Al-Qiroat rivayata Varsh va Hafs. – BAA: Dorul vozih, 2014. – B. 89-95.

² Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Tafsiri hilol. – T.: Hilol-nashr, 2008. – J. – B. 208.

surasi 62-oyat). U xuddi namozda o'qiyotgandek dona-dona talaffuz qilar edi. Chunki Qur'on oyatlari uning qon-qoniga singib ketgan edi."

Ibn Jazariyning aytishicha, u Kufada 127-hijriy yilda vafot etgan³.

Roviy Hafs ibn Sulaymon ibn Mug'iyra ibn Abu Dovud Kufiy Bazzoz hijratning 90-yili tug'ilgan. Hafs ibn Sulaymon Osim ibn Abu Najudning tutingan o'g'li, ya'ni ayolining o'g'li edi. Qiroatni Osimdan olgan. U Osimning eng mashhur ikki roviysidan biri bo'lib, Osim unga Ali (r.a.)ga yetib boradigan qiroatini o'rgatgan. Hafs Osimning huzurida bir necha bor Qur'onni o'qib o'tkazgan. Avvalgilar uni hifzda Abu Bakr ibn Ayoshdan ustun bo'lgan, deyishadi. Uning Osimga o'qib bergan harflari zabtli hisoblanadi.

Hafsdan qiroatni o'rgangan zamondoshlari ko'p bo'lib, ulardan: Husayn ibn Muhammad Marvaziy, Amr ibn Sabboh, Ubayd ibn Sabboh, Fazl ibn Yahyo Anboriy, Abu Shuayb Qavvos, Hamza ibn Qosim Ahvol, Sulaymon ibn Dovud Zahroniy, Hamdon ibn Abu Usmon Daqqoq, Abbos ibn Fazl Safar, Abdurahmon ibn Muhammad ibn Voqid, Muhammad ibn Fazl Zarqon va boshqalardir.

Hafsning aytishicha, u Osimning qiroatiga biror narsada ham xilof qilmagan. Faqatgina Rum surasi 54-oyatdagi "ذُفِرَ" lafzidagi "dod" harfini Hafs zamma bilan o'qigan, Osim esa fatha bilan⁴.

Xulosa qilib aytganda, Hafsning Osimdan qilgan rivoyatining islom olamida keng tarqalishiga bir qancha omillar ta'sir qilgan. Jumladan: Hafs Qur'on ta'limida boshqalardan ilg'or bo'lgan, u faqat Kufaning o'zida ta'lim berish bilan cheklanmasdan, boshqa islom o'lkalarida ham ko'pchilikka Qur'ondan dars bergan. Shuningdek, Hafs rivoyatidagi qiroat qoidalari sodda va oson bo'lib, uni o'rganish chuqur malaka talab qilmaydi. Bu esa o'z navbatida uni o'rganuvchilar sonining ortishiga sabab bo'lgan⁵. Bundan tashqari, aynan Usmonli turklar imperiyasi davrida Hafs qiroati keng tarqalgan. Bu imperiya ushbu qiroatning keng tarqalishiga katta hissa qo'shgan.

References:

1. Ahmad ibn Umar Hamaviy. Al-Qovaid val isharat fi usulil qiroat. – Damashq: Dorul qalam, 1406-h. – J. 1.
2. Ahmad Xolid Shukriy. Al-Munir fi ahkamit tajvid. – Omon: Al-Matobi' al-markaziyya, 2005.
3. Ali ibn Foris al-Xayyot. At-Tabsira fil qiroat. – Bayrut: Maktabatur rushd, 2007.
4. Ali Muhammad Zobba'. Al-Izoa fi bayoni usulil qiroat. – Qohira: Al-Maktaba al- azhariyya.
5. Ali Muhammad Zobba'. Irshodul munir ila maqsudil qosid. – Misr.
6. Al-Jakniy. Al-Foriq bayna rivayat Hafs va Varsh. – Madina: An-Nahar, 1412-h.
7. Doniy. At-Taysir fil qioatis sab'i. – Ash-Shariqa: Maktabatus sahoba, 1997.
8. Doniy. At-Tazhib lima tafarroda bihi kulli vahidin minal qurrois sab'i. – Damashq: Doru Naynavo, 1426-h.

³ Qarang: Halima Sol. Al-Qiroat rivayata Varsh va Hafs. – BAA: Dorul vozih, 2014. – B. 89-95.

⁴ Qarang: Halima Sol. Al-Qiroat rivayata Varsh va Hafs. – BAA: Dorul vozih, 2014. – B. 99-106.

⁵ Odinaxon Muhammad Yusuf. Mufasssal tajvid. – T.: Hilol-nashr, 2016. – B. 21.